



THE MANIFESTATION OF INDIRECT ILLOCUTIONARY ACTS IN WOMEN'S SPEECH

Dilnoza Qodirjon qizi Abdurasulova

Student (PhD)

*Alisher Navoiy Tashkent State University of the Uzbek Language and
Literature*

Tashkent, Uzbekistan

Abdurasulovad185@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-8713-5523>

<https://doi.org/10.36078/1783399102>

Abstract. This article investigates the pragmalinguistic features of Uzbek women's speech within the framework of speech act theory. The analysis highlights the theoretical foundations of pragmalinguistics based on the scholarly perspectives of leading researchers. The study examines the communicative-pragmatic nature of locutive, illocutive, and perlocutive acts in speech, their speaker intentions, mechanisms of influence on the listener, and their interrelation with socio-cultural factors. In particular, the functional-semantic potential of speech acts such as complaints, grievances, requests, admonitions, warnings, advice, wishes, prayers, and curses in women's communication is revealed. Using examples from mother-in-law–daughter-in-law, mother–child, and husband–wife discourses, the paper discusses presuppositions, pragmatic homonymy, indirect illocutive acts, and gender-specific communicative strategies. The communicative function, emotional-expressive load, and the role of curses in expressing the speaker's internal experiences and influencing the listener psychologically and socially are analyzed. Additionally, the application of these speech units in conveying warnings, disapproval, sarcasm, irony, or specific educational objectives is illustrated with examples. The findings contribute to a deeper understanding of the unique pragmatic nature of Uzbek women's speech and gender-specific patterns of verbal behaviour.

Keywords: speech act; pragmatics; women's speech; curse speech act; illocutive force; communicative strategy; communication; expressiveness; pragmatic homonymy; speech intention.

AYOLLAR NUTQIDA BILVOSITA ILLOKUTIV AKTLARNING NAMOYON BO'LISHI

Dilnoza Qodirjon qizi Abdurasulova

Doktorant (PhD)

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti*

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek ayollari nutqining pragmalingvistik xususiyatlari nutqiy aktlar nazariyasi doirasida tadqiq etiladi. Tahlil jarayonida pragmalingvistikaning nazariy asoslari olimlarning ilmiy qarashlari negizida yoritilgan. Maqolada nutqda voqelanadigan lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarning kommunikativ-pragmatik tabiati, ularning so‘zlovchi intensiyasi, tinglovchiga ta’sir mexanizmi hamda ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Xususan, shikoyat, nolish, iltimos, tanbeh, ogohlantirish, nasihat, tilak, duo va qarg‘ish kabi nutqiy aktlarning ayollar muloqotidagi funksional-semantik imkoniyatlari ochib beriladi. Qaynona-kelin, ona-farزند va er-xotin diskurslari misolida presuppozitsiya, pragmatik omonimiya, bilvosita illokutiv aktlar hamda genderga xos kommunikativ strategiyalar izohlanadi. Maqolada qarg‘ishlarning kommunikativ vazifasi, hissiy-ekspressiv yuklamasi, so‘zlovchining ichki kechinmalarini ifodalashdagi o‘rni hamda tinglovchiga ruhiy va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, bunday birliklarning ogohlantirish, norozilik bildirish, ta’na, kinoya yoki muayyan tarbiyaviy maqsadni ifodalashda ham faol qo‘llanishi misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek ayollari nutqining o‘ziga xos pragmatik tabiati va genderga xos nutqiy xulq shakllarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt; pragmatika; ayollar nutqi; qarg‘ish nutqiy akti; illokutiv kuch; kommunikativ strategiya; muloqot; ekspressivlik; pragmatik omonimiya; nutqiy intensiya.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda nutq va muloqotni pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda gender lingvistikasi doirasida ayollar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek tilshunosligida ayollar nutqining pragmatik jihatlari, xususan, qarg‘ish nutqiy aktlarining kommunikativ vazifalari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo‘nalish sifatida tan olingan pragmalingvistikaning asosiy muammolaridan biri bu nutqiy akt masalasidir. Nutqiy ta’sir aktlarining ifodalanishini tadqiq etish maqsadida, avvalo, nutqiy akt nazariyasining asoslarini chuqur o‘rganish talab etiladi. Bu jarayon nutqiy aktlarning psixolingvistik xususiyatlari, ularning tasnifi va funksiyalarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Nutqiy akt masalasi tilshunoslikda keng tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramay, mavjud manbalarda bu tushuncha bir xilda izohlanmaydi, uning turlari esa har xil mezonlarga ko‘ra tasniflanadi. Jahon tilshunosligida nutqiy akt nazariyasi izchil va keng miqyosda tadqiq etib kelinmoqda. Shu sababli ham u pragmatika doirasidagi eng sermahsul va chuqur o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri sifatida baholanadi. Nutqiy aktga oid dastlabki umumlashgan nazariy qarashlar esa Vilgelm fon Gumboldt, Sharl Balli, Sergey Karsevskiy, Lev Yakubinskiy, Karl Byuller, Emil Benvenist hamda Mixail Baxtin singari olimlarning lingvistik konsepsiyalarida o‘z aksini topgan.

Asosiy qism

Tilshunoslikda pragmatiklikning nazariy asoslari bayon etilgan qator tadqiqotlar mavjud. T. A. van Deykning nutqiy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, asosiy pragmatik kategoriyalar, nutqiy strategiya, nutqiy akt tuzilishi bo'yicha izlanishlari alohida o'ringa ega. U o'z tadqiqotlari davomida matn faqat gaplarning o'zaro bog'lanishidan emas, balki nutqiy aktlarning ham o'zaro munosabatidan tashkil topadi, degan xulosaga keladi, matnning pragmatik xususiyatlari, nutqiy akt, presuppozitsiya masalalariga chuqur yondashadi (Дейк ван 1998).

Graysning fikriga ko'ra (Grice 1975), suhbat ishtirokchilari odatda kommunikativ maqsadga erishish uchun kommunikativ niyatlarni amalga oshiradilar. I.D.Arutyunova esa nutq tuzish jarayonida so'zlovchining turli maqsadlarni ko'zlashini tahlil qilib, insonlar mulohazalarini ifodalash, nasihat qilish, taklif berish, ishontirish, kimningdir harakatini tahlil qilish kabi maqsadlarni ko'zlagan holda nutq tuzishlarini ta'kidlaydi (Арутюнова 1976).

Gender tilshunosligida nutq shaxsning jinsiga emas, balki ijtimoiy rolga bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Pragmatikada nutqning uch darajasi farqlanadi:

- lokutiv akt (aytilgan jumla);
- illokutiv akt (so'zlash orqali bajarilgan harakat);
- perlokutiv akt (tinglovchiga ta'sir ko'rsatish).

Nutqiy akt nazariyasi J. L. Austin va J. R. Searle (Searle 1969) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u so'zlovchining so'z orqali bajaradigan illokutiv harakatlarini ifoda qiladi. Nutqiy aktlar lokutiv (so'zlash jarayoni), illokutiv (maqsad va niyat) va perlokutiv (tinglovchiga ta'sir) darajalaridan iborat. Intensional tahlilda kommunikativ jarayonda voqelanadigan nutqiy faoliyatning so'zlovchi maqsadi, istagi bilan bog'liq tomonlari o'rganiladi, — deydi Sh.Safarov va Kiyev universitetining professori O.G.Pochepsovning fikriga qo'shilgan holda shunday davom etadi, — “nutqiy harakat va bu harakat vositasida voqelanadigan maqsad so'zlovchi ko'zlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichidir”. Shuning uchun ham olim umumiy intensiyani ikki qismga ya'ni “boshlang'ich intensiya (maqsad)” va “natijaviy intensiya”ga ajratishni taklif qiladi” (Сафаров 2008: 80).

R. Choerunnisa ham shunday deydi: “Nutq harakatlarini bajarishda uchta bog'liq harakat mavjud: Ular lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlardir” (Choerunnisa 2015: 8). Illokutiv aktlarni A. Setyaji niyat qilish harakati

sifatida ta'riflab, bu niyatni o'z ichiga olgan harakatlar illokutiv aktlar ekanligini tushuntiradi (Arso Setyaji 2014: 18). "Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi perlokutiv akt nomini olgan. Demak, perlokutsiya tinglovchi ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish harakatidir" (Сафаров 2008: 94), — deb talqin etadi Sh.Safarov.

O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari M.Hakimov tomonidan tahlil qilingan (ХАКИМОВ 1996: 165). Lingvopragmatik tahlilda xursandlik, achchiqlanish, hayratlanish, ajablanish, e'tiroz, buyruq, iltimos, maqtanchoqlik, mensimaslik, kinoya, kesatiq kabi ma'nolarni qamrab olishi ko'rsatib o'tilgan (ХАКИМОВ 2001: 165). Olim pragmalingvistikaga doir izlanishlarini birlashtirib, "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari" nomli monografiyasini e'lon qildi (ХАКИМОВ 2013 : 176).

Milliy o'ziga xoslik, muayyan xalqning o'ziga xos urf-odat va an'analari ham nutqqa ta'sir qiluvchi pragmatik omillar sirasiga kiradi. Sh.Iskandarovning nomzodlik dissertatsiyasida ham o'zbek nutqiy odati birliklari, kommunikativ harakat komponentlari, muomala vaziyati kabi tushunchalarga xos kuzatishlar mavjud. "Salomlashish", "Minnatdorchilik bildirish", "Iltimos", "Erkalash", "Xayrlashish" kabi nutqiy vaziyatlar va ularda qo'llanuvchi nutqiy odat birliklari tahlil qilinadi. Tilning amaliy faoliyatini aniqlashda suhbatdoshlarning bilimi, qiziqishi, maqsadi kabilarning pragmatika bilan bog'lanishi ta'kidlangan (Искандарова 1993 : 28). Nutq uslubi ijtimoiy vaziyatga, suhbatdoshning yoshi, jinsi, o'rni va boshqa omillarga qarab ham o'zgaradi. Ayollar, odatda, muloqotda suhbatdosh bilan emotsional bog'lanishga urinishadi va bu jarayonda nutqning hamkorlik uslublarini qo'llaydilar.

O'zbek tilshunosligida bolalar muloqotida nutqiy akt turlarining voqelanishi, deysis va presuppozitsiyaning leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi, konnotatsiyaning yuzaga chiqishi masalalarini tadqiq etgan M. Qurbonova (Қурбонова 2018: 238) nutqiy akt va unda ifoda etilgan axborot, bu axborotning tinglovchi tomonidan tushunilishi, nutqiy akt orqali tinglovchiga ta'sir ko'rsatish kabilar pragmalingvistikaning tahlil obyektlari ekanligini ta'kidlaydi. U "Nutqiy harakatni anglatuvchi kommunikativ aloqaning verbal ifodali birligi nutqiy akt sanaladi. Nutqiy aktda xabar, so'roq, buyruq, izoh berish, kechirim so'rash, tashakkur bildirish, tabrik ifodalash kabi turli nutqiy harakatlar amalga oshiriladi", — deydi (Қурбонова 2018: 238). Nutqiy akt tilning faqat mazmunini emas, balki uning kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan funksiyasini ham qamrab oladi. Zero, so'zlovchi har bir nutqiy birlik orqali ma'lum bir harakatni amalga oshirish bilan birga ijtimoiy ta'sir mexanizmi hamdir.

Sh. Yusupovanning "Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi" nomli dissertatsiyasining III bobi — "Nutqiy aktlar nazariyasining diniy matnlarda

voqelanishi”da intonatsiya, urg‘u va pauza kabi fonetik vositalar perlokutiv aktning ta’sirchanligini kuchaytiruvchi muhim omillar sifatida tahlil etiladi. Dissertatsiyada diniy nutqdagi nutqiy aktlar, ayniqsa perlokutiv aktlarning lingvopragmatik va fonetik asosda tahlil qilinishi yangi yondashuv sifatida ko‘rsatilgan (Юсупова 2021: 154).

Y. Yaqubova dissertatsiyasida buyruq, so‘roq, iltimos va maslahat kabi nutqiy ta’sir aktlarining lingvopragmatik xususiyatlari tizimli ravishda tadqiq etilgan bo‘lib, o‘zbek tilida rad etish aktlarining jinsiy omilga bog‘liq perlokutiv xususiyatlari yuzasidan empirik namuna ishlab chiqilgan (Yaqubova 2026 : 29).

Ayollar nutqi ham shaxsning jamiyatda egallagan o‘rni, muloqotdagi vazifasi va kommunikativ maqsadlari bilan belgilanadi. Shu sababli ayollar nutqini faqat leksik yoki grammatik emas, balki nutqning maqsadi, ta’siri va yashirin ma’nolari orqali pragmatik tahlil qilish ham muhimdir. Ayollar nutqining pragmalingvistik tahlili orqali ularning muloqotda qanday strategiyalarni qo‘llashini turli ijtimoiy rollar (ona, qiz, rafiqqa, kelin, do‘st, talaba, xodim, ishchi) doirasida nutqni qanday shakllantirishini va ijtimoiy muhitga moslashishini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, shuningdek, til va madaniyatning o‘zgaruvchan tabiatini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Nutqiy aktlar nazariyasining eng muhim jihatlaridan biri muayyan kommunikativ maqsad ko‘zlangan va bilvosita yoki bevosita qo‘shimcha propozitsiya ifodalovchi illokutiv aktlardir. Har qanday illokutiv maqsad adresatga nisbatan nutqiy ta’sir uslubi yoki imkoniyatini bildiruvchi illokutiv kuch asosida voqelanadi. Ushbu illokutiv kuchning to‘g‘ri anglanishi esa J. Searl tomonidan shakllantirilgan IFIDs- Illocutionary Force Indicating Devices (Illokutiv Kuchni Ko‘rsatuvchi Vositalar) va felicity conditions (muvaffaqiyat shartlari) ga bog‘liq. Eng mukammal tasnif sifatida baholanuvchi illokutiv nutqiy aktlar J.Serl tomonidan taklif etilgan bo‘lib, unda olim nutq aktlarini muayyan guruhlarga ajratishdagi 12 ta maxsus mezonni ishlab chiqqan. Shunga ko‘ra, reprezentativ yoki assertiv (nutqiy tuzilmaning rostligini tasdiqlovchi aktlar), direktiv (buyruq, iltimos, ogohlantirish, savol kabi undash aktlari), deklarativ (muayyan holatni o‘zgartirishga qaratilgan aktlar), kommissiv (va’da berish yoki majburiyat aktlari) va ekspressiv (so‘zlovchining psixologik holatini ifodalovchi aktlar) kabi nutqiy akt guruhlari shakllantirilgan. Nutqiy aktlar nazariyasining dastlabki guruhi reprezentativ yoki assertiv aktlar bo‘lib, ularda asosiy maqsad so‘zlovchini talaffuz etilgan propozitsiyaning rost yoki yolg‘on ekanligiga ishonitirish va xabar mazmunini ifodalashdir. Ayollar nutqining o‘ziga xosligi aynan shu uch darajada namoyon bo‘ladi. Ularning

muloqotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq akti uchramaydi, iltimos, kinoya, taklif, ta‘sir etish kabi strategiyalar faol qo‘llanadi.

Pragmalingvistik tadqiqotlarda ayollar va erkaklar nutqi o‘rtasidagi farqlar yoki o‘xshashliklar muloqot jarayonida egallagan ijtimoiy rollar bilan bog‘langan holda o‘rganiladi. Ayollar va erkaklar nutqining pragmatik jihatlari ularning muloqotda qanday maqsadlarni ko‘zlashlari, nutqni qanday uslubda tuzishlari va jamiyatda belgilangan gender rollarining ta‘sirini ko‘rsatadi. Erkak va ayollar nutqida modal so‘z va fe‘llar nutqiy aktning tinglovchi obraziga tahdid solishiga yo‘l qo‘ymasligi uchun xizmat qiladi (Shamaxmudova 2023: 24).

Ayollar muloqot jarayonida ijtimoiy muvozanatni saqlashga, suhbatdoshga nisbatan mehr-muhabbat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga, hamdardlik bildirish, qo‘llab-quvvatlash hamda xushmuomalalikni ta‘minlashga harakat qiladilar. Shu sabab ularning nutqida hamkorlik, suhbatdosh bilan yaqinlik o‘rnatish, emotsional muvozanatni saqlash va qarama-qarshilikni yumshatish strategiyalari yetakchilik qiladi. “*Iltimos*”, “*Balki*”, “*Mumkinmi?*”, “*Siz nima deb o‘ylaysiz?*” kabi pragmatik markerlar ko‘p qo‘llaniladi. Bu bilan suhbatdoshga hurmat ko‘rsatish va muloqotni qulay muhitda davom ettirishga erishiladi. Erkaklar o‘z nutqida, uning ta‘sirchanligini va illokutiv kuchini oshirish uchun emotsional vositalardan emas, balki ko‘chirmalardan, pretsedent matnlardan va frazeologizmlardan keng foydalanishadi (Djalilova 2023). Ular nutqida nazorat qilish, qaror qabul qilish va ta‘sir o‘tkazish strategiyalari ustun bo‘ladi. Erkaklar nutqi nisbatan raqobatbardosh va aniq bo‘ladi. Ular tez-tez direktiv shakllarini (masalan, “*Bu yerga o‘tiring*”, “*Bu ishni bajar*”, “*Gapning indallosi*”, “*Gapning po‘st kallasi*” kabi) ishlatadilar va ularning nutqida hukm qilish, xulosa yasash, tanqid qilish yoki mustahkamlash kabi intensiyalar yetakchilik qiladi.

Ayollar nutqi ko‘pincha hamkorlik strategiyasiga yo‘naltiriladi. Bu strategiya muloqotda suhbatdosh bilan ijtimoiy uyg‘unlikni saqlash imkonini beradi. Misol sifatida quyidagi dialogni ko‘rib chiqamiz: Ayol: “*Agar iloji bo‘lsa, ish vaqtingizdan keyinroq vaqt ajrata olasizmi?*”. Erkak: “*Hozir ishim ko‘p, keyin gaplashamiz.*” Ushbu misolda ayol iltimos orqali murojaat qilmoqda, bu hamkorlik strategiyasining amaliy namunasidir. Erkakning javobi esa perlokutiv akt sifatida ayol murojaatiga kutilganidek javob bo‘la olmaydi. Bu misol orqali hamkorlik strategiyasi har doim ham kutilgan natijani bermasligi ko‘rinadi. Shuning uchun pragmalingvistik tahlilda ayollar nutqining vaziyatga moslashuvchanligi va suhbatdoshining javobini ham hisobga olish muhim hisoblanadi.


1-jadval

Ayollar nutqida nolish va shikoyat aktlarining tahlili

Nutqdan parcha	Nutqiy akt turi	Lokutiv jihat	Illokutiv jihat	Perlokutiv jihat
“Yangi ko‘ylak olishim kerak, - desam zo‘rg‘a pul beradi.”	Iltimos	fakt bayoni	ma‘naviy rag‘bat, maslahat kutish	tinglovchida achinish uyg‘otish
“Mening erim asabiy. Ishi yurishmasa, alamini mendan oladi.”	Nolish	vaziyat bayoni	shikoyat	hamdardlik hissini uyg‘otish
“Kunlarim bir xil o‘tadi: uy tozala, ovqat qil, kir yuv, dazmol...”	Nolish	vaziyat bayoni	bir xillikdan zerikish	tinglovchida achinish hissini uyg‘otish
“Mening erim juda rashkchi. Telefon tuttirmaydi.”	Shikoyat / Nolish	vaziyat bayoni	tanqid qilish	hayratlanish
“Erim meni himoya qila olmaydi.”	Nolish	xabar	norozilik	hamdardlik uyg‘otish

1-rasm

Ayollar nutqidagi lokutiv va perlokutiv aktlar



Diagrammada ayollar nutqidagi har bir aktning **lokutiv va perlokutiv jihatlari vizual tarzda** ifodalanadi.

Masalan, “Yangi ko‘ylak olishim kerak...” iborasi lokutiv jihatdan kuchli bo‘lib, fakt bayoni bilan ifodalanadi, ammo perlokutiv ta’siri nisbatan past. Shu bilan birga, “Erim meni himoya qila olmaydi” iborasi tinglovchida yuqori darajada hamdardlik va achinish uyg‘otadi.

Nuqtalarning **rangi** va **kattaligi** perlokutiv ta’sir darajasini ko‘rsatadi. Qizil rang past, moviy rang esa yuqori perlokutiv ta’sirni ifodalaydi, nuqtaning katta yoki kichikligi esa tinglovchiga berilgan hissiy ta’sirning kuchayishini aks ettiradi. Nutq parchalari tinglovchida hosil qilinadigan perlokutiv ta’sir darajasi va lokutiv axborot hajmi bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali ayollarning muloqotdagi nutq uslubi tahlil qilinadi.

Yuqoridagi matnda tasvirlangan ayollar suhbatida turli yashirin kommunikativ maqsadlar ko‘zga tashlanadi:

- ayollar huquqlarining cheklanganligi va poymol etilishi;
- erkak hukmronligi;
- oilada yoki jamiyatda adolatsizlikka chidash;
- erkinlikka intilish;
- jamiyatdagi “qaynona — kelin” qarama-qarshiligi.

O‘z-o‘ziga hasrat qilish sog‘lom sanaladigan odamlardan ko‘ra katta yoshdagi kishilarda, ayniqsa, hayotda ko‘p iztirob, qiyinchilik tortgan, turmushidan norozi ayollarda ko‘proq uchraydi (МўМИНОВ 2000: 235).

Mazkur nutq parchasida ayolning jamiyatdagi “ko‘rinmas yuk”ini ko‘rish mumkin: *Yomonimdan orttirgan 3ta bolam bor, axir aytishadi-ku, erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin deganlaridek, bir kunamas bir*

kun qaro yermas, er bo'lib qolar, deb chidab-chidaaab yashayapman (“Andishali kelinchak” spektaklidan).

Ushbu nutq o‘zbek ayolining oilaviy holatini, turmushdagi murakkab munosabatlarga munosabatini ifodalaydi. Ayol turmush o‘rtog‘i bilan bo‘lgan ziddiyatli vaziyatlarda munosabatni saqlashga harakat qiladi, norozilik esa “sabr” diskursi orqali ifodalangan. Bu nutq parchasi orqali tinglovchida hamdardlik hissi paydo bo‘lishi bilan birga, “sabr”ning muhim qadriyat sifatida qabul qilinishi perlokutsion ta’sirni yuzaga keltiradi. Turmush o‘rtog‘iga nisbatan “yomonim” so‘zining qo‘llanishi orqali subyektiv baho ifodalanadi. “*Chidab-chidaaab yashayapman*” birligi zamirida bo‘lsa, jarayonning muntazam davom etganini va og‘riqli bo‘lganini anglash mumkin. So‘z tarkibidagi unli tovushni cho‘zib talaffuz qilish orqali nutqning ta’sir kuchini oshirishga harakat qilinadi (Курбонова 2018: 238). “*Aytishadi-ku, erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin*” degan xalq maqoli oqlov strategiyasi doirasida qo‘llanib, ayolning turmush qiyinchiliklariga chidamliligi ijtimoiy majburiyat sifatida asoslanadi. Bunda mazkur maqol madaniy “kod” vazifasini bajaradi.

Matnda zo‘ravonlik yoki erkak zulmi ochiq ko‘rinmasa-da, “*Chidab yashayapman*”, “*Bir kun emas, bir kun...*” kabi ifodalar orqali bu mazmun implitsit tarzda ifodalangan. Shu bilan birga, “qaro yer” metaforik birligi erning hozirgi ijtimoiy-axloqiy qadrsizlanishini bildiruvchi salbiy baholovchi leksik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalqida oilaning totuv va mustahkamligi ayollarga bog‘liqligi, unga nisbatan bo‘layotgan adolatsizliklarga javoban sabr qilinsa, albatta bir kun baxtli bo‘lish mumkinligi singdiriladi. Sharifa Salimovaning “Baxshiyona” asaridagi quyidagi misralar bu fikrning tasdig‘ini aks ettiradi:

*“Qaddingni tik tut ayol,
Alamlaring yut ayol.
Boq, bu bir kam dunyoda,
Kimning baxti but ayol.”*

Mazkur she’riy satrlar ayolga qaratilgan da’vat bo‘lib, uning ortida jamiyatning bosimi va adolatsizlikka chidash majburiyati yotadi. “*Qaddingni tut*” va “*alamlaring yut*” buyruq aktlari orqali ayolga jamiyat tomonidan yuklatilgan bardoshlilik tushunchasi ifodalanadi. She’riy parchada ayollarga “to‘liq baxt” va’da qilinmasligi, aksincha faqat chidash, ichga yutish va sukut qilish kerakligi mazmunidagi talab akti yetakchilik qiladi. Shuningdek, buyruq, talab, taklif nutqiy aktlarining bir o‘rinda parallel qo‘llanayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda nutq vaziyatiga ko‘ra nutqiy aktlarni ajratish mumkin. Shuningdek, bu holatni pragmatik omonimiya (Тойн 1978: 302) hodisasi sifatida ham tasnif qilish mumkin.

Mazkur to'rtlikda bir emas, bir necha mazmun mavjud. Bunda tinglovchiga "motivatsiya" va "tasalli" berish bilan birga "sukut qilishga" undash mazmunlari ham anglashiladi. "Pragmatik jihatdan omonim bo'lgan bir necha nutqiy aktlar bir vaqtning o'zida birinchi darajali ma'no imkoniyatiga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi" (ХАКИМОВ 2001: 103). Bunda yuqoridagi buyruq, talab hamda taklif aktlari bir qatorda anglanishi mumkin. Pragmatik omonimiya deyilganda, bir xil nutqiy birlikning turli kommunikativ maqsadlarga xizmat qilishi tushuniladi. Ya'ni, gapning shakli bir xil, lekin illokutiv akti kontekstdan kelib chiqib bir necha yo'sinda talqin qilinishi mumkin. Ayollar ko'pincha birgina jumla orqali ham mehr, ham buyruq, ham tasalli ifodalay oladilar. Ularning gaplari ko'pincha hissiy va ijtimoiy konnotatsiyalarga boy bo'ladi. Shuning uchun ham pragmatik omonimiya ayollar nutqida juda muhim sanaladi.

She'riy parchada qo'llangan "Tut", "yut", "boq" kabi buyruq fe'llarini keltirish bilan qat'iy talab akti yuzaga kelmoqda. "Alamlaring yut" iborasi ayolga nafaqat sabr, balki hissiyotlarini nazorat qilish tavsiya qilinadi. U baqira olmaydi, yig'lay olmaydi, o'z noroziligini ochiq bildira olmaydi. Ayolga nisbatan qo'yilgan bu talablar nutq orqali ong ostiga singdiriladi. Bu yerda kommunikativ maqsad perlokutiv akt orqali ayolning ruhiyatiga ta'sir qilishdan iborat bo'lib, "Kimning baxti but" ritorik so'rovi (assertive nutqiy akt) orqali ayolga go'yoki tasalli beriladi. Biroq bu tasalli ayolning baxtsizligi normal holat sifatida qabul qilinishini ham bildiradi.

Til nafaqat axborot uzatish vositasi vazifasini bajaradi, balki muloqotni tartibga soluvchi, ijtimoiy rollarni mustahkamlovchi va xalq ongida shakllangan milliy-madaniy me'yorlarni avloddan avlodga yetkazuvchi muhim omil sanaladi. O'zbek xalqi muloqotida qaynona-kelin, ona va farzand, er va xotin munosabatlari ayollar nutqining pragmatik imkoniyatlarini namoyon etuvchi yirik kommunikativ maydon hisoblanadi.

O'zbek xalqida asrlar o'tsa-da, qaynona - kelin munosabatlari dolzarbligini yo'qotgani yo'q. O'zbek an'analarida kelin bo'ysunuvchi, muloyim, itoatkor muloqot ishtirokchisi bo'lishi kutiladi. Qaynona esa hurmatga sazovor, qaror qabul qiluvchi, o'z nuqtai nazariga ega shaxs sifatida muloqotda yetakchilik qiladi.

Kelin degan qaynona bilan gaplashayotganda, yer chizib tursin, yer chizib tursin! ("Super qaynona" spektaklidan)

Bu gap orqali qaynona kelinni og'ir-bosiq, itoatli, xushmuomala bo'lishga chaqirmoqda. Nutqiy intensiya ochiq tanbeh emas, ammo qat'iy ogohlantirish akti tarzida ifodalanmoqda. Lokutiv akt ko'rsatma yoki maslahat tarzida ifodalangan bo'lsa-da, aslida unda majburlash illokutiv akti bilvosita aks etgan. "Sen bilan gaplashilayotganda odobni bil, ya'ni, "yer

chizib tur” akti mazmunida ko‘zingni pastga qil, muloyim bo‘l, haddingni bil konnotativ semalari yotadi.

Oilaviy munosabatlarda qaynona ijtimoiy mavqeini saqlab qolgan holda o‘ziga nisbatan quyi pog‘onadagi kelinlik maqomida turgan shaxsdan itoat qilishni kutmoqda.

Grays prinsiplariga ko‘ra, mavzuga oidlik tamoyili buzilishi natijasida gap savol shaklida berilib, e’tiroz va tanbeh implitsit ma’nosi yuzaga keladi. Mazkur holat o‘zbek oilaviy muloqotidagi ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lib, unda hurmat, intizom va xizmat kabi qadriyatlar yumshoq, ammo sezilarli bosim orqali ifodalanadi.

“Kelin bo‘lganidan keyin bilib-bilib ishini qiladi-da, kelinni nimaga olganmiz?” (“Andishali kelincha” spektaklidan).

Mazkur gapda asosiy nutqiy maqsad tanbeh berish bo‘lib, u norozilikni ifodalash bilan birga kelinga o‘z ijtimoiy o‘rnini eslatishga qaratilgan. *“Bilib-bilib ishini qiladi-da”* birikmasi kelinning xatti-harakati ongli ravishda noto‘g‘ri amalga oshirilganini anglatib, e’tiroz va ayblov mazmunini yuzaga chiqaradi. Ushbu ifoda orqali qaynona *“kelin o‘z vazifasini qanday bajarishi kerakligini anglab yetmadi”* degan fikrni implitsit tarzda ilgari suradi. Gapning ikkinchi qismidagi *“kelinni nimaga olganmiz?”* so‘rovi orqali ayblov illokutiv akti aks etgan. Mazkur gap javob talab qilmaydi, aksincha, fikrning keskinligini kuchaytirib, tanbehning ta’sirchanligini oshiradi. Ushbu nutqiy usul tinglovchi, ya’ni kelinning ichki hissiyotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatish hamda unga psixologik bosim o‘tkazishga xizmat qiladi.

Qaynona bu bilan kelinlik maqomini, unga bo‘lgan ijtimoiy talabni eslatadi: kelin oddiy odam emas, u oilaning muhim a‘zosi, mas’uliyatli shaxs sifatida o‘zini tutishi kerak. Yashirin nutqiy niyatga ko‘ra, qaynona o‘z o‘rnini, ya’ni ustun mavqeyini mustahkamlab, kelindan itoatkorlik, xushyorlik, ijtimoiy me’yorlarga moslikni kutmoqda. Ritorik so‘rov orqali o‘zining tajribali, oilaviy qadriyatlarni yaxshi tushunadigan shaxs sifatidagi pozitsiyasini ifoda etmoqda. Bu jumla qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlarni, o‘zbek madaniyatidagi kelinlik burchining qat’iyligini va oilaviy tuzumdagi ijtimoiy rollarning ahamiyatini ochib beradi.

“Zotini surishtirdim. 4 ta xotin ichiga kirolmaydigan chiqolmaydigan bo‘lib goldim. “Hoy Qunduzxon, ha kelin tushurganizga 1 yil bo‘layapti, kelinni oy kuni yaqinlashdimi? Qachon beshik to‘yga boramiz? deb, piching gaplar qilishib, o‘yib-o‘yvolishadi. Mana shu gap-so‘zlardan boshimni ko‘tarib yuromiy goldim. Bo‘ldi. Ajratvolib boshqasini oberaman” (“Andishali kelinchak” spektaklidan).

Kontekstdan shikoyat va g'azab sezilsa-da, aslida bu nutq orqali qaynonaning ijtimoiy obro'siga yetayotgan putur, kelinga nisbatan ishonchsizlik va nasl davomiyligi to'xtab qolishidan qo'rquvda ekanligi ko'rinadi.

“Zotini surishtirdim” birligi orqali qaynona tomonidan kelinning nasli haqida ma'lumot olinganligi anglashiladi. Odatda o'zbek xalqida nikohdan oldin kelin-kuyovning ajdodi aniqlanadi. Bundan maqsad uning ajdodlarida turli nasl suruvchi kasalliklar yoxud bepushtlik bo'lmaganligiga ishonch hosil qilishdir. Ammo keyingi jumladan bu ishonch puchga chiqqani ma'lum bo'ladi. “Chiqolmaydigan” leksik birligida esa bu vaziyatdan chiqishning iloji yo'qligini, ijtimoiy siquv kuchayib ketganini anglash mumkin.

Keyingi qismdagi “Hoy, Qunduzxon, ha kelin tushurganingizga bir yil bo'layapti, kelinning oy kuni yaqinlashdimi?” kabi kamsituvchi va piching ohangidagi nutqiy aktlar jamiyatda ayollarga homiladorlik orqali baho berish bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplarga ishora qiladi. Mazkur bo'lakda tanbeh va kinoya nutqiy aktlari mujassamlashgan.

Bu yerda eksplitsit mazmun homiladorlik haqida so'rov bo'lsa, “hali farzand yo'q”, “kelin o'z vazifasini bajarmayapti” degan ayblov implitsit tarzda anglashiladi. Mazkur gaplar atrof dagilarning nutqi sifatida keltirilgan bo'lsa-da, pragmatik nuqtayi nazardan ular qaynona mavqeiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki qaynona o'z obro'sining jamiyatda aynan kelinining farzandli yoki farzandsizligi orqali baholanayotganini angelaydi. Natijada ijtimoiy bosim qaynona nutqida keskin qarorga olib keladi: “Mana shu gap-so'zlardan boshimni ko'tarib yuromay qoldim. Bo'ldi. Ajratvolib boshqasini oberaman.” Ushbu ifodada qaror qabul qilish illokutiv akti mavjud. “Ajratvolish” birligi nikohni bekor qilishni, “boshqasini olib kelish” esa farzandini zudlik bilan qayta uylantirish niyatini bildiradi.

So'zlovchining kommunikativ intensiyasi orqali kelinning eng muhim hayotiy vazifasi farzand dunyoga keltirish, avlodni davom ettirish bajarilmayotganiga ishora qilinadi. Shu bilan birga jumlada kelinning qadri emas, balki jamiyatdagi stereotiplarga mos kela olmasligi asosiy mezon sifatida ilgari suriladi. Nutq aniq va keskin bo'lsa-da, uning ortida yillar davomida shakllangan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar hamda ayol obraziga bo'lgan umumiy munosabat yotadi.

Ayollar ona ijtimoiy rolida ko'pincha nasihat va axloqiy saboq beruvchi nutqiy aktlardan foydalanadilar:

1. Buyruq va tavsiyalarni ifodalovchi nutqiy aktlar. “Bilaman, ko'zga yaqinsan. Orqangdan yigitlar ergashadi. O'ng quloq, chap quloq'ing bilan eshitib qo'y. Har ko'ringan yigitga ko'zingni suzib, xomtalash bo'lsang, mendan yaxshilik kutma!” orqali muayyan axloqiy tamoyilni targ'ib qiladi.

2. Xulosaviy va nasihatomuz nutqiy aktlar.

*“Ikki qo‘ldan chiqar qars,
Muloyim bo‘l, kelgin past.
“Xo‘p bo‘ladi, desang bas,
Qizim, qaynonang tillo”*

(M. Karimova).

Bunda xulosaviy nutqiy akt sifatida kishi o‘zining kamchiliklarini bilishi muhimligi targ‘ib qilinadi va shu bilan tinglovchiga axloqiy saboq beradi.

3. Ogohlantirish va tanbehni ifodalovchi nutqiy aktlar.

— *Farmatsevt bo‘lmoqchiligimni eshitganida bir og‘iz gap aytdi: -Yaxshi o‘ylabsan, qizim. Ammo aytib qo‘yay. Men ketingdan yugurib yurolmayman. Eplasang, kir. Eplolmasang, xafa bo‘lma, ochingdan o‘lmaysan (O‘. Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).*

*Beradi, jon qizim. Bermasin-chi, naq **qulog‘ini kesib olaman**. Voy bu qizning shirinligini! (O‘. Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).*

“Kap-katta bola... Shu ketishing bo‘lsa, yaqinda o‘zingniyam yo‘qotib qo‘yasan. Bo‘pti, bor!”

O‘zbek oilaviy muloqotida ona va farzand o‘rtasidagi nutq ko‘pincha ijtimoiy rollar va majburiyatlar orqali shakllanadi. Ona nutqi farzandga axloqiy me‘yorlar, tartib-intizom va mas‘uliyatni eslatish bilan ajralib turadi. Misol uchun: -*Kimsan! Nomusga o‘ldirding-ku! Zart to‘ppi kiysang qiz bola bo‘pqolasa.* (O‘. Hoshimov. “Ikki eshik orasi”). Nutqda kinoya orqali tanbeh aks etgan. “*Nomusga o‘ldirding*” jumlasini bilan esa ayblov qo‘yilmoqda. Unda so‘zlovchi tinglovchining xatti-harakatini qoralash, uni ijtimoiy me‘yordan chetga chiqishda ayblash orqali uyaltirish perlokutsion ta‘siriga erishishga intiladi.

— *Men so‘roqlamasam o‘zingning esinggayam kelmaydi-a! — Xolposh xola boshini ta‘na bilan chayqadi. — Sendaqa onani **mushuk yesin!*** (O‘. Hoshimov. “Ikki eshik orasi”). Bu yerda so‘zlovchi tinglovchining mas‘uliyatsizligini eslatish orqali tanqid qilmoqda, keyingi haqorat esa uning ijtimoiy qadrsizlanishini ko‘zlagan ekspressiv akt sifatida qo‘llanadi. Perlokutsion jihatdan bu nutq adresatda xijolat, aybdorlik yoki ichki qarshilik uyg‘otadi.

4. Tilak akti.

*Ona der: “**Gul yuzli bo‘lsin,***

*Kelin emas — **qiz bo‘lsin.***

*Mendan qolar **iz bo‘lsin,***

Qayerda qiz bor qayerda?” (M. Karimova). Tilak va duo (olqish) aktlari insonlar o‘rtasidagi ijobiy munosabatni mustahkamlovchi, xayrixohlik va yaxshilik tilash mazmunidagi diskursiv birliklar hisoblanadi. Ular qarg‘ishning semantik va pragmatik antonimi bo‘lib, o‘zbek xalqi madaniyatida alohida ijtimoiy-ma‘naviy ahamiyatga ega. O‘zbek nutqiy etiketida duo va tilak muloqotni boshqarishga xizmat qiladi.

- muloqotga kirishishda: “Assalomu alaykum” (Sizga tinchlik tilayman), “Omon bo‘ling”, “Sog‘ bo‘ling”;
- minnatdorchilik ifodasi sifatida: “Umringizdan baraka toping” kabi.

Pragmalingvistika va nutqiy aktlar nazariyasida duo (olqish) va tilak bir-biriga juda yaqin bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish o‘rni va kommunikativ maqsadlarida farqlar mavjud. Tilak ko‘proq dunyoviy va etik munosabatlar doirasida bo‘ladi. U ma‘lum bir sana yoki voqelikka bog‘liq bo‘lishi mumkin. Duo esa diniy xarakterga ega hisoblanadi. Katta yoshdagi o‘zbek ayollarining uzundan-uzun duo qilishi esa shu xalq mentalitetiga xos xususiyatdir. Suhbatdosh sha‘niga duo qilish, aksariyat hollarda, yoshi ulug‘ o‘zbek onaxonlari nutqida kuzatiladi (Karimova 2020).

— *Shundog‘ deng, voy, umringdan baraka topkurey. — Qumri otin qo‘lini yozib duo qildi. — Martabasi baland bo‘lsin, topgani tugallik bilan o‘tsin. Omin! Shundoq deng?* (O‘. Umarbekov. “Sovg‘a“)

5. Qarg‘ish akti. Qarg‘ish mualliflari asosan ayollardir. Ular qarg‘amay turolmaydilar. Bolalarini, erlarini, do‘stiyu dushmanini, ermak uchun bo‘lsa ham qarg‘aydilar: ...” (Mўминов 2000: 189).

Ayollar nutqida qarg‘ish strategiyasi odatda norozilikni ifodalashda qo‘llanadi. O‘zbek ayollari nutqida uchraydigan qarg‘ishlar illokutiv funksiyasiga ko‘ra uch asosiy turga bo‘linadi. Ularning har biri ayolning kommunikativ intensiyasi, hissiy holati va nutqiy maqsadini ifodalashda turlicha pragmatik yuklama hosil qiladi. Qarg‘ishlarda baho munosabati ifodalanib, bu munosabat o‘ta salbiy yoki kuchsiz baho munosabatini ifodalaydi, ba‘zi o‘rinlarda esa shunchaki koyish uchun ham ishlatiladi (Umurzaqova 2024: 27).

1. Hissiy-emotsional qarg‘ish nutqiy aktlari.

Bu turdagi qarg‘ishlar ayolning ayni paytdagi keskin hissiy holati g‘azab, alam, ranjish, hafsalasi pir bo‘lish kabi kechinmalarini bevosita ifodalaydi. Misollar:

“Yo‘q bo‘lsin!”, “Qurib ketsin!”, “Ado bo‘lsin!”

“Basharasi qursin!” “*Basharang qursin! Qayoqdan keldi nu so‘xtasi sovuq. Shu kuniyam holi qo‘yishmaydi*” (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).

“O‘lsin” “-**O‘lsin**, motor o‘t olmayapti!-dedi yonimga cho‘nqayib. MTCda o‘zimdanda boshqa hech zog‘ qolmadi. Nima balo, bular meni erkak deb o‘yladi, shekilli!” (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”).

2. Yo‘naltiruvchi (direktiv) qarg‘ish nutqiy aktlari. Bu turda ayol qarg‘ish orqali bilvosita ta‘sir o‘tkazish, tinglovchini o‘z xatti-harakatini o‘zgartirishga majbur qilish, unga bosim o‘tkazish yoki ogohlantirishni ko‘zlaydi.

“Ko‘zing ko‘r bo‘lsin!” “Qo‘ling akashak bo‘lsin!” kabi.

— *Ana!* — *Kelinoyi tag‘in shang‘illadi.* — *Sizning eringiz o‘tiningizgacha yorib beradi. Maniki bo‘lsa, bir paqir suv olib kelmaydi, qo‘lginang sinib, akashak bo‘lgur. Uyim-joyim deb bo‘ynini egmaydi, bo‘yniginang kesilgur, eshshak! Xudoyo bo‘yniginang hazrati Alining qilichida kesilmasa, u dunyo-bu dunyo rozimasman-a!* (O‘. Hoshimov. “Ikki eshik orasi”). Bu qarg‘ishlar nutq egasining ta‘sir o‘tkazish strategiyasini namoyon etadi.

3. Tinglovchiga ta‘sir qiluvchi (va‘da-xatar xarakteridagi) qarg‘ish nutqiy aktlari.

Ushbu turdagi qarg‘ishlar kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatni va‘da qilish yoki “qaytish”, “javob bo‘lish” kabi diniy-axloqiy asoslangan tushunchalar orqali ta‘sir ko‘rsatadi. Nutqda bu kabi qarg‘ishlarni qo‘llash orqali tinglovchini qo‘rqitish, ogohlantirish, nazoratga olishga erishiladi. Misollar: “**Xudodan qaytsin!**” *Unsin piyoladagi loyqa suvni darrov ichdi va xiyla yengil tortganday bo‘ldi. — Mendan qaytmasa xudodan qaytsin... Ota-onam borishimni harna ertaroq eshitsa, harna ertaroq suyunsa... Nodirmohbegim yana kaltaklanishidan hayiqmay, Ganjiravonga bir xizmatkorini yubordi. Biroq Unsin peshingacha yetmadi — uzildi* (A. Qahhor. “Dahshat”).

Qarg‘ishlarda o‘lim oshkora (“O‘liging chiqsin”, “qiz o‘lgur” kabi) yoki metaforik usul bilan (“Og‘zingdan qoning kelsin”, “Qo‘shmozor bo‘lgur” kabi) ifoda etiladi. Qarg‘ishlarni nutqda qo‘llashdan asosiy maqsad suhbatdoshga ta‘sir qilishdir. O‘zbek xalq qarg‘ishlari maqol va matallardek uzoq va puxta o‘ylangan dono mulohaza sifatida emas, balki inson ruhiy holati sifatida tinglovchiga (qarg‘aluvchiga) asosan og‘zaki nutq orqali yetkaziladi. Bunda qarg‘ovchi — qarg‘ish subyekti bo‘lsa, qarg‘ish yo‘naltirilgan shaxs — uning obyekti sanaladi. Odatda, qarg‘ishlar qisqa shaklda, buyruq-istak maylidagi fe‘llar vositasida (masalan, “*Qo‘lin sinsin*”, “*Kosang oqarmasin*”, “*Baloga yo‘liqqur*” kabi) ifoda etiladi.

Kishilar muloqotida qarg‘ish gaplar shaklida tuzilgan, lekin duo mazmuni aks etuvchi tilaklar ham ko‘p uchraydi. Katta yoshli ayollarga xos hayotiy

tajriba, salobat, pand-nasihath tarzida muloyimlik bilan soʻzlash, hikmatli soʻzlarni qoʻllash, olqish, duo mazmunidagi qargʻishlardan foydalanish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

— Voy uyingga *bugʻdoy toʻlgurlar*, voy *koʻpaygurlar*, kela qolinglar, — dedi ovozi tovlanib (O. H. “Dunyoning ishlari”).

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek ayollari nutqida qargʻishlar asosan illokutiv kuchga ega boʻlib, hissiy-ekspressiv va yoʻnaltiruvchi xususiyatga ega. Ayollar muloqotida nutqiy aktlar koʻpincha hissiy-ekspressiv boʻlib, nolish, shikoyat, norozilik va bilvosita qarshilik strategiyalari ustunlik qiladi. Qargʻishlar koʻpincha bilvosita qarshilik, norozilik yoki psixologik himoya vositasi sifatida ishlatiladi. Ular madaniy qadriyatlar, diniy eʼtiqodlar va ijtimoiy meʼyorlar bilan chambarchas bogʻliq. Shuningdek, ayollar nutqida qargʻishlar erkaklar nutqiga nisbatan koʻproq emotsional ifoda kasb etadi. Oʻzbek ayollari nutqida qargʻish nutqiy aktlari muhim pragmatik vosita hisoblanadi. Ular yuqori hissiy-ekspressiv yuklamaga ega, tinglovchiga kuchli taʼsir oʻtkazadi, ijtimoiy-madaniy meʼyorlar bilan bogʻlangan va bilvosita taʼsir strategiyasini ifodalaydi.

Nutqiy muloqotda bilvosita illokutiv aktlar kommunikativ muvozanatni saqlash va ijtimoiy munosabatlarda keskinlikni kamaytirish vazifasini bajaradi. Ayollar kommunikativ faoliyatida illokutiv aktning tasdiq, soʻroq, iltimos, buyruq, kechirim, istak, talab kabi turlari hosil qilinadi. Bolalardan farqli ravishda ayollar nutqida maslahat, kinoyaviy tasdiq, ogohlantirish, vaʼda aktlari koʻp uchraydi. Nutqiy aktning bu kabi mazmuniy turlari baʼzan sintaktik strukturaga muvofiq tarzda shakllansa, baʼzida presuppozitsiya orqali yashirin ifodasiga ega boʻladi. Ayollar nutq jarayonida suhbatdoshlariga nutqiy taʼsir koʻrsatish aktidan unumli foydalanadilar. Ular koʻpincha xabar, buyruq, soʻroq, iltimos, minnatdorchilik aktlari orqali nutqiy taʼsir koʻrsatadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film / Arso Setyaji // UNS Journal of language studies. — 2014. — Vol. 03, № 01. — P. 71–85.

Choerunnisa, R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis / R. Choerunnisa; Yogyakarta State University. — Yogyakarta, 2015. — 105 p.

Djalilova, Z. Ingliz va oʻzbek tillarida xushmuomalalik nutqiy harakatlarning gender xususiyatlari : filol. fan. fal. dok-ri (PhD) ... diss. avtoref. / Z. Djalilova. — Buxoro, 2023. — 52 s.

Grice, H. P. Logic and conversation / H. P. Grice // Syntax and Semantics. Vol. 3. Speech Acts / ed. by P. Cole, J. L. Morgan. — New York: Academic Press, 1975. — P. 41–58.

Lakoff, R. Language and Woman's Place / R. Lakoff. — New York: Harper & Row, 1975. — 83 p.

Searle, J. R. Speech Acts : An Essay in the Philosophy of Language / J. R. Searle. — Cambridge : Cambridge University Press, 1969. — 203 p.

Shamaxmudova, A. F. Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqelaniruvchi sotsiopragmatik omillar (ispan tili misolida): filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoreferati / A. F. Shamaxmudova. — Toshkent, 2023. — 67 s.

Umurzaqova, M. E. Badiiy matnda lisoniy shaxs voqelanishining sotsiopragmatik va lingvomadaniy aspekti : filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. / M. E. Umurzaqova. — Toshkent, 2024. — 68 s.

Yaqubova, Y. A. O‘zbek tilida nutqiy ta’sir aktlarining ifodalanishi : filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoreferati / Y. A. Yaqubova. — Toshkent, 2026. — 50 s.

Арутюнова, Н. Д. Предложение и его смысл: Логико-семантические проблемы / Н. Д. Арутюнова; АН СССР, Ин-т языкознания. — Москва: Наука, 1976. — 383 с.

Дейк, Т. А. ван. Вопросы прагматики текста / Т. А. ван Дейк; пер. с англ. Х. Салихова // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. VIII: Лингвистическая прагматика / сост. и вступ. ст. Н. Д. Арутюновой. — Москва: Прогресс, 1978. — С. 259–336.

Дейк, Т. А. ван. Язык. Познание. Коммуникация : сборник трудов / Т. А. ван Дейк ; пер. с англ. под ред. В. И. Герасимова. — Благовещенск : БГК им. И. А. Бодуэна де Куртенэ, 2000. — 308 с.

Искандарова, Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари : филол. фан. номзоди ... дисс. / Ш. Искандарова ; Самарқанд давлат ун-ти. — Самарқанд, 1993. — 137 б.

Каримова, З. Ғ. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: филол. фан. фалсафа доктори (PhD) ... дисс. / З. Ғ. Каримова; Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти ун-ти. — Тошкент, 2020. — 145 б.

Қурбонова, М. А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари : филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. / М. А. Қурбонова ; Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти ун-ти. — Тошкент, 2018. — 238 б.

Мўминов, С. М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари : филол. фанлари д-ри ... дисс. / С. М. Мўминов ; Тошкент давлат шарқшунослик ин-ти. — Тошкент, 2000. — 254 б.

Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент, 2008. – Б.80

Сафаров, Ш. Прагмалингвистика: монография / Ш. Сафаров. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. — 286 б.

Ҳақимов, М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари : филол. фан. номзоди ... дисс. / М. Ҳақимов ; Фарғона давлат ун-ти. — Фарғона, 1996. — 132 б.

Ҳақимов, М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари : монография / М. Ҳақимов. — Тошкент : Академнашр, 2013. — 176 б.

Ҳақимов, М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини : филол. фанлари д-ри ... дисс. / М. Ҳақимов ; ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт ин-ти. — Тошкент, 2001. — 276 б.

Юсупова, Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи : филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. / Ш. Юсупова ; Фарғона давлат ун-ти. — Фарғона, 2021. — 148 б.

References

Arutyunova, N. D. (1976). *Predlozhenie i ego smysl: Logiko-semanticheskie problemy* [The sentence and its meaning: Logical-semantic problems]. Nauka.

Choerunnisa, R. (2015). *An analysis of speech acts in the dead poets society* (Unpublished master's thesis). Yogyakarta State University.

Djalilova, Z. (2023). *Ingliz va o'zbek tillarida xushmuomalalik nutqiy harakatlarining gender xususiyatlari* [Filol. fan. fal. dok-ri (PhD) diss. avtoref.]. Bukhara.

Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts* (pp. 41–58). Academic Press.

Hakimov, M. (1996). *O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari* [Filol. fan. nomzodi ... diss. avtoref.]. Farg'ona.

Hakimov, M. (2001). *O'zbek tilida matnning pragmatik talqini* [Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref.]. Tashkent.

Hakimov, M. (2013). *O'zbek pragmalingvistikasi asoslari* [Foundations of Uzbek pragmalinguistics: A monograph]. Akademnashr.

- Iskandarova, Sh. (1993). *O'zbek nutq odatining muloqot shakllari* [Filol. fan. nomzodi ... diss. avtoref.]. Samarqand.
- Karimova, Z. G. (2020). *O'zbek va ingliz tillarida so'z-gaplarning sotsiopragsmatik xususiyatlari* [Filol. fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.]. Tashkent.
- Lakoff, R. (1975). *Language and woman's place* (pp. 45–79). Harper & Row.
- Mýminov, S. M. (2000). *Ўzbek mulokot khulkining izhtimoi-lisonii khususiyatlari* [Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref.]. Tashkent.
- Qurbonova, M. A. (2018). *O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari* [Filol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref.]. Tashkent.
- Safarov, Sh. (2008). *Pragsmalingsvistika* [Pragsmalingsvistics: A monograph]. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- Setyaji, A. (2014). How speech acts work in translation: An analysis on speech acts in translating a script of Titanic film. *UNS Journal of Language Studies*, 3(1), 71–85.
- Shamaxmudova, A. F. (2023). *Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi sotsiopragsmatik omillar (ispan tili misolida)* [Sociopragsmatic factors realizing principles of respect in the context of speech acts (on the example of the Spanish language)] (Doctoral dissertation, DSc thesis abstract, Tashkent).
- Umurzaqova, M. E. (2024). *Badiiy matnda lisoniy shaxs voqelanishining sotsiopragsmatik va lingvomadaniy aspekti* [Sociopragsmatic and linguoculturological aspects of linguistic personality manifestation in literary text] (Doctoral dissertation, DSc thesis abstract, Tashkent).
- van Dijk, T. A. (1978). Voprosy pragmatiki teksta [Issues of text pragmatics]. In N. D. Arutyunova (Ed.), *Novoe v zarubezhnoj lingvistike: Vyp. VIII. Lingvisticheskaya pragmatika* (pp. 259–336). Progress.
- van Dijk, T. A. (2000). *Yazyk. Poznanie. Kommunikatsiya* [Language. Cognition. Communication]. BGK im. I. A. Boduehna de Kurtene.
- Yaqubova, Y. A. (2026). *O'zbek tilida nutqiy ta'sir aktlarining ifodalanishi* [Expression of speech acts of speech influence in the Uzbek language] (Doctoral dissertation, PhD thesis abstract, Tashkent).
- Yusupova, Sh. (2021). *Diniy matnlarning lingvopragsmatik tadqiqi* [Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref.]. Farg'ona.